

ISSN: 2181-1040  
DOI: 10.26739/2181-1040  
tadqiqot.uz/renaissance



# JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL  
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 6 | **2025**  
ISSUE 3

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
ТОМ 6, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE  
VOLUME 6, ISSUE 3



## Бош муҳаррир:

### МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор Мирзо Улуғбек  
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

#### Бош муҳаррир ўринбосари:

##### ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари доктори, доцент Мирзо Улуғбек номидаги  
Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

#### Бош муҳаррир ўринбосари:

##### ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Мирзо  
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

## МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

### МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,  
профессор (Ўзбекистон)

### ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий  
академияси академиги, санъатшунослик фанлари  
доктори, профессор (Ўзбекистон)

### МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари  
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

### ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

### ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси  
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

### КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари  
кафедраси PhD фалсафа доктори (АҚШ)

### АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети  
профессори (Испания)

### ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий  
университети профессор, филология фанлари доктори,  
(Ўзбекистон)

### КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,  
тарих фанлари доктори (АҚШ)

### ИБРОҲИМ УСМАНОВ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Бериуний номидаги  
Шарқшунослик институти – Тарих фанлари номзоди, доцент  
(Ўзбекистон)

### АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,  
PhD (Миср Араб Республикаси)

### МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,  
PhD (Миср Араб Республикаси)

### ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети  
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

### ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Андижон давлат университети  
фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

### МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессор,  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

### САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти  
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

### ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети в.б. профессор, социология  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

### ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доцент, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
PhD докторанти (Ўзбекистон)

### ҲЕЛАЛ АБДЕЛРАЗЕК САДЕК АБДЕЛРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,  
PhD (Миср Араб Республикаси)

### ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор в.б. Мирзо Улуғбек  
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Дизайн–саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Главный редактор:

**МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА**

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

## Заместитель главного редактора:

**ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА**

доктор философских наук, доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

## Заместитель главного редактора:

**ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ**

доктор философии (PhD), Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ**

Ректор Национального университета Узбекистана, профессор (Узбекистан)

**ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ**

Академия наук Узбекистана, академик Академии художеств Узбекистана, доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

**МАРИАННА КАМП РУТЦ**

профессор Центра Евразийских исследований Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

**ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ**

Профессор ISFT института, доктор политических наук (Узбекистан)

**ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ**

Международной исламской академии Узбекистана, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

**КЛЭР РООСИЕН**

PhD доктор кафедры Славянских языков и литературы Йельского университета (США)

**АНТонио АЛОНСО МАРКОС**

профессор Университета CEU имени Сан Пабло (Испания)

**ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА**

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

**КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ**

профессор Университета Хофстра, доктор исторических наук (США)

**ИБРОХИМ УСМАНОВ**

кандидат исторических наук, доцент, Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан (Узбекистан)

**АХМЕД МУССА АБДАЛЛА СЕЙФЕЛДИН**

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

**МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД**

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

**ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ**

профессор Казахский национальный университет имени аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

**ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА**

профессор Андижанский государственный университет, кандидат философских наук. (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ**

профессор Наманганский государственный технический университет, доктор философских наук (Узбекистан)

**САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА**

профессор Навоийский государственный педагогический институт, доктор философских наук, (Узбекистан)

**ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА**

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ**

и.о.профессор Наманганского государственного университета, доктора философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

**ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА**

доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD), по философским наукам (Узбекистан)

**ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ**

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

**РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ**

докторант Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

**ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК**

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

**ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА**

доктор философских наук (DSc), исполняющая обязанности профессора, Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан).

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Chief Editor:

**MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA**

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor  
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

## Deputy Chief Editor:

**YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA**

Doctor of Philosophical Sciences, Docent of National  
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

## Deputy Chief Editor:

**KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH**

Doctor of Philosophy (PhD), National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

## MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

**MADJIDOV INOM URUSHEVICH**

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

**KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH**

Academy of Sciences of Uzbekistan,  
Academician of the Academy of  
Arts of Uzbekistan, Doctor of  
Art History, Professor (Uzbekistan)

**MARIANNE KAMP RUTZ**

Professor of the Center for Eurasian Studies  
at Indiana University, Doctor of History (USA)

**DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH**

Professor of the ISFT Institute,  
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

**ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH**

International Islamic Academy of Uzbekistan,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

**CLAIRE ROOSIEN**

Department of Slavic Languages and Literature  
of the Yale University, PhD (USA)

**ANTONIO ALONSO MARCOS**

Professor of the University of CEU  
named after San Pablo (Spain)

**SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA**

Vice-Rector for International Affairs of the National  
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

**KARIMOV ELYOR ERIKOVICH**

Professor of the Hofstra University,  
Doctor of Historical Sciences (USA)

**IBROHIM USMANOV**

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor, Abu Rayhon  
Beruniy Institute of Oriental Studies, Academy of Sciences of  
Uzbekistan (Uzbekistan)

**AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN**

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan  
(Arab Republic of Egypt)

**MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD**

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan  
(Arab Republic of Egypt)

**GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH**

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

**YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA**

Andijan State University, Doctor of Philosophical  
Sciences, professor. (Uzbekistan)

**MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH**

Professor of the Namangan State Technical University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

**SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA**

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor  
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

**JURAEVA NIGORA AVAZOVNA**

Docent of the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

**MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH**

Docent of Namangan State University,  
Doctor of Philosophy (PhD) on  
Sociological Sciences (Uzbekistan)

**ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA**

Docent of National University of Uzbekistan named  
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),  
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

**SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH**

The National University of Uzbekistan named  
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

**RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI**

doctoral student of the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

**HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK**

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan  
(Arab Republic of Egypt)

**DILBAR FAYZIKHODJAYEVA IRGASHEVNA**

Doctor of Philosophy (DSc), Acting Professor, National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Madayeva Shahnoza Omonullayevna</b> JADIDCHILIK TA'LIMOTINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY USTUVOR YONDASHUVLARI.....	7
<b>2. Yuldasheva Farida Xujamkulovna</b> GLOBALLASHUV VA SIVILIZATSIYA: TARAQQIY ETISHI VA MUNOSABATLARI....	13
<b>3. Yusupova Dildora Dilshatovna</b> THE NATIONAL MODEL OF UPBRINGING IN THE JADIDIC TEACHINGS.....	25
<b>4. G'aniyev Ithom Muzaffarovich</b> JAHON ADABIYOTI VA JADIDLAR BADIY MEROSIDA INTERTEKSTUALLIK.....	31
<b>5. Amirov Azamat Odil og'li</b> A HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL PERSPECTIVE ON JADIDISM AND ITS INFLUENCE ON THE MODERNIZATION OF MUSLIM COMMUNITIES.....	39
<b>6. Джураева Нигора Авазовна</b> СЕТЕВЫЕ ВЛИЯНИЯ И АВТОПОЭТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ КОГНИТИВНОЙ РЕКОНФИГУРАЦИИ СОЗНАНИЯ ВОСТОЧНОГО ЧЕЛОВЕКА В КОНТЕКСТЕ ЦИВИЛИЗАЦИОННОГО ПЕРЕХОДА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....	45
<b>7. Madayeva Mo'tabarxon Amanullayevna</b> MAQOLLAR – XALQ MADANYATINING KO'ZGUSI.....	57
<b>8. Alikulov Xusniddin Akbarovich</b> ZAMONAVIY EKOLOGIK PARADIGMALAR: ANTROPOSENTRIK VA EKOSENTRIK YONDASHUVLARNING FALSAFIY TAHLILI.....	62
<b>9. Maxkamov Ulug'bek Abdugapporovich</b> DIALOG FENOMENINING TALQINI.....	72
<b>10. Narziev Farxod Qurbon o'g'li</b> MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR NEGIZIDA NUKLEAR OILADAGI AVLODLAR MUNOSABATI.....	80
<b>11. Курбанбаева Улбосын Жумагалиевна</b> УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ КАК ФИЛОСОФСКО-ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ.....	87
<b>12. Suyunova Noila G'ayrat qizi</b> MORTIMER ADLER TA'LIM FALSAFASIGA OID QARASHLARINING NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	94

ISSN: 2181-1040


www.tadqiqot.uz

**МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ****ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**  
**JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE****Maxkamov Ulug'bek Abdugapporovich**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

"Falsafa" kafedrasida dotsenti, PhD

E-mail: ulke01659@mail.ru

**DIALOG FENOMENINING TALQINI** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18088616>**ANNOTASIYA**

Ushbu maqolada dialog fenomenining ilmiy ijodiy faoliyat va falsafiy tafakkur tizimidagi o'rni hamda uning metodologik ahamiyati keng yoritilgan. Dialog inson nutqiy, ma'naviy va ijtimoiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida tahlil etilib, uning tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy talqinlari bayon etilgan. Tadqiqotda falsafa fani vakillarining qarashlari asosida dialogning bilim olish, anglash va ijodiy fikr shakllanishidagi o'rni falsafiy jihatdan yoritilgan. Shu bilan birga, dialogning savol-javob tizimi, nutqiy munosabatlar, ma'no yaratish mexanizmi va ijtimoiy-madaniy muhitdagi roliga oid qarashlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Dialog, muloqot, falsafiy tafakkur, ilmiy ijod, ma'no, savol-javob, anglash, nutq, ijtimoiy munosabat, metodologiya, Baxtin, Suqrot, ijodiy tafakkur, ma'naviy dunyo, bilish jarayoni.

**Makhkamov Ulugbek Abdugapporovich**

Associate Professor of the Department of Philosophy,

National University of Uzbekistan, PhD

E-mail: ulke01659@mail.ru

**INTERPRETATION OF THE DIALOGUE PHENOMENON****ANNOTATION**

This article extensively covers the role of the dialogue phenomenon in the system of scientific creative activity and philosophical thinking, as well as its methodological significance. Dialogue is analyzed as an integral part of human speech, spiritual, and social activity, and its history, theoretical foundations, and contemporary interpretations are described. The study, based on the views of representatives of the philosophical science of M., philosophically illuminates the role of dialogue in acquiring knowledge, understanding, and forming creative thinking. At the same time, opinions on the system of questions and answers, speech relations, the mechanism for creating meaning, and the role of dialogue in the socio-cultural environment were analyzed. The work substantiates dialogue not only as a way of communication but also as a universal way of knowing that develops human thought.

**Keywords:** Dialogue, communication, philosophical thinking, scientific creativity, meaning, question-answer, understanding, speech, social attitude, methodology, Bakhtin, Socrates, creative thinking, spiritual world.

**Махкамов Улугбек Абдугаппорович**

Доцент кафедры “Философия”

Национального университета Узбекистана, PhD.

E-mail: ulke01659@mail.ru

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФЕНОМЕНА ДИАЛОГА****АННОТАЦИЯ**

В данной статье широко освещается роль феномена диалога в системе научной творческой деятельности и философского мышления, а также его методологическое значение. Диалог анализируется как неотъемлемая часть речевой, духовной и социальной деятельности человека, описываются его история, теоретические основы и современные интерпретации. В исследовании на основе взглядов представителей философской науки М. философски освещена роль диалога в получении знаний, понимании и формировании творческого мышления. Вместе с тем, проанализированы мнения о системе вопросов и ответов, речевых отношениях, механизме создания смысла и роли диалога в социокультурной среде. Произведение обосновывает диалог не только как способ общения, но и как универсальный способ познания, развивающий человеческое мышление.

**Ключевые слова:** Диалог, общение, философское мышление, научное творчество, смысл, вопрос-ответ, понимание, речь, социальное отношение, методология, Бахтин, Сократ, творческое мышление, духовный мир, познавательный процесс.

**Kirish va mavzuning dolzarbligi.** Dialog keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u nafaqat muloqot shakli, balki inson ma’naviy dunyosi va ijtimoiy hayotini ifoda etuvchi metodologik usul sifatida ham talqin qilinadi. Dialog turli davr falsafiy maktablarda turlicha ifodalangan bo‘lib, uning mazmuni ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Dialog nazariyasiga ko‘ra, til va nutqning mohiyati bir tomonlama xabar yetkazishdan iborat emas, balki har doim boshqa shaxs bilan muloqotda bo‘lish, uning fikrini hisobga olish va u bilan ma’naviy munosabatga kirishish jarayonidir. Baxtin fikricha, “har qanday so‘zda o‘zga bir so‘zga munosabat, o‘zga bir nuqtai nazarga ishora yashiringan bo‘ladi”[1]. Shu ma’noda, dialogizm faqat adabiy uslub emas, balki inson tafakkurining universal qonuniyatidir.

Bugungi kunda dialog o‘zaro tushunish va tushuntirish jarayonida vaziyatni anglashni bildiruvchi ontologik tushuncha sifatida talqin etiladi. Bu tabiiy intilish falsafa fanining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq. Dialog ko‘p hollarda bir kishining suhbatini bildiruvchi, suhbatdoshda aks ta’sirini sodir etmaydigan monolog tushunchasiga qarshi qo‘yiladi. Falsafiy ma’noda esa dialog shaxsning o‘zi bilan yoki o‘zining ichki dunyosi bilan fikr almashinish jarayonini anglatadi. Qadimdan ma’lumki o‘z ichki olami bilan suhbat qurish, insonning o‘z-o‘zini anglashini bildiradi. Hozirgi kunga kelib kompyuter inqilobi, ilmiy bilimlarning yalpi matematikalashuvi, axborot qamrovining global o‘sishi yuz bermoqda. Xotira, faoliyat dasturi, o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayoni, muloqot va boshqa murakkab bioijtimoiy hodisalar axborotsiz amalga oshmaydi»[2]. Falsafiy fanlar sohasida ham barcha metodlarning ahamiyatini qaytadan o‘rganish, ularni o‘zaro munosabati muammosini chuqur tadqiq etish taqozo etilmoqda. Jumladan, dialogning falsafiy tafakkur rivojining hozirgi bosqichida qay darajada ilmiy-metodologik ahamiyatga ega ekanligini o‘rganishga bo‘lgan urinishlar aksariyat hollarda tanqid ostiga olinishi bilan birgalikda ushbu masala atrofida tarixda bo‘lgani kabi «munaqqidlar bilan yoqlovchi xayrixohlar» o‘rtasida keskin bahsmunozaralar bo‘lib o‘tmoqda. Albatta bunday ilmiy munozaralar fan va falsafa taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birgalikda «meniki to‘g‘ri» qabilidagi dogmatik qarashlarga ham olib kelayotganini unutmash kerak. Shu ma’noda tarixda bo‘lgani kabi, bugungi kunda ham davom etayotgan bahslarning yuzaga kelishi sabablarini o‘rganish va shu asosda masalaga xolisona baho berishda quyidagi nozik jihatlarga e’tibor berish lozim. Avvalombor, dialogni falsafada ham «haqiqatni anglash usuli» ham «bahs munozara san’ati» degan ma’nolarda ishlatilishi ko‘p hollarda turli darajadagi ziddiyatli fikrlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. «XXI asrda paydo bo‘lgan yangi fanlar ham inson bilan tabiat, inson bilan inson orasida ziddiyatlar asosida emas, balki ular

o‘rtasida muloqot, hamkorlikka qaratilganligini ko‘rsatdi»[3]. Shunday ekan mazkur holatni bartaraf etish uchun «dialog»ning ijtimoiy jarayonlarni shakllantirish vositasi sifatida paydo bo‘lishidan, to bugungi kungacha bo‘lgan barcha ilmiy yondashuvlarning ba‘zilarini har taraflama chuqur va xolis tadqiq etishga harakat qilamiz. Zero, falsafiy qarashlar orasidagi ziddiyat va kelishmovchiliklarning aksariyati ushbu sohaga doir tushunchalarning zamiriga qo‘yilgan so‘zlarning asl ma‘nolarini unutish yoki uni buzib talqin qilish oqibatida kelib chiqadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Dialogni amalga oshirish uchun uning ishtirokchilarining dastlabki ma‘lumotlari, shuningdek ishtirokchilar bilimlaridagi tengsizligi haqida ma‘lumotlarga oydinlik kiritib olish lozim. Har bir yangi ibora hamsuhbat uchun ham yangi ma‘lumot hisoblanadi.

Har bir dialog ma‘lum bir fikrlar tuzilmasidan tashkil topadi:

- a) savol - javob;
- b) ibora - rozilik yoki norozilikni ifodalash;
- v) ta‘kid – rozilik yoki gumon;
- g) ma‘lumot – savol;
- d) iltimos-uni bajarish yoki bajarmaslikka tayyorgarlik.

Dialog tarkibining tahlili uning asosiy bo‘lagi savol va javobning o‘zaro aloqasidan boshlanadi.

Shu nuqtai-nazardan D.Fayzixodjaevaning masalaga munosabati diqqatga sazovor. Uning fikricha savol va javob – voqelikni anglash va muloqot qilish jarayonida sub’ektlarning aqliy-nutqiy faoliyatining alohida yo‘nalishini belgilovchi ikkita o‘zaro bog‘liq atamalar bo‘lib, ular ob’ektiv dunyo haqidagi aniq, to‘liq bilimlarni (ma‘lumot) olish va yangi bilimlarni (yangi ma‘lumotlarni) izlashga xizmat qiladi. Sub’ekt o‘zini anglashga oid va muloqot qilish faoliyati jarayonida turli savollar qo‘yadi, va ularga boshqa sub’ektlardan turli ko‘rinishdagi javoblar oladi yoki ularga o‘zi javob beradi[4].

D.Fayzixodjaeva fikrini qo‘llagan holda dialogda savol asosiy o‘ringa ega deb ta‘kidlash mumkin. Zero, u orqali dialogning asosiy mavzusi va mazmuni aniqlanadi. Savollar yordamida javob beruvchining fikrlari mazmunga ega bo‘ladi, savollar chegarasi ortida qolganida esa, o‘z ma‘nosini yo‘qotadi. Bilimlarni mustahkamlovchi va ularga sub’ektning munosabatini bildiruvchi tushuncha va mulohazalardan farqli o‘laroq, savollar bilish va insonlararo muloqot jarayonida yuzaga keluvchi turli ko‘rinishdagi ehtiyojlarni qayd qiladi. Ularning qo‘yilishi bilish va muloqot jarayonidagi qiyinchilik va ziddiyatlarga bog‘liq.

Fikrimizni quyidagi holatlarda berish mumkin.

fikr noaniq bo‘lsada, uni tushunish maqsadi;

fikrda ifodalangan bilimlar izchilligini ta‘minlash;

bilmaslikdan bilishga, oddiy ma‘lumotdan kutilayotgan natijaga o‘tish maqsadi.

Dialog maqsadi munosabatiga ko‘ra savollar jumboqli va mushohada qilishga majbur etuvchi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Agar to‘g‘ri javob dialog mavzusining yaqqol ochilishiga imkon bersa, savol jumboqli hisoblanadi. Agar to‘g‘ri javob qandaydir yo‘l bilan hamsuhbatlarni mushohada qilishga undovchi, savolning yoritilishiga bog‘liq bo‘lgan jumboqli savolni tushunishga yaqinlashtirsa, savol mushohadaga undovchi bo‘ladi.

Miqdoriy jihatdan umumiy va xususiy savollar ajratiladi. Bu jarayonda xususiy savolning yuzaga kelishi uchun umumiy savolni izohlash talab qilinadi.

Har qanday savol javob bilan uzviy bog‘liq. Javobning asosiy vazifasi savol natijasida yuzaga kelgan noaniqlikni bartaraf etishdir.

Javoblar to‘g‘ri va kinoyali, to‘liq va qisman, to‘liq va noto‘liq, to‘g‘ri keluvchi va to‘g‘ri kelmaydigan shaklda bo‘lishi mumkin.

Savol va javob tushunish va tushuntirish bilan bog‘liq. Inson nimanidir tushunish uchun savol beradi. Javobda esa noaniq xolat tushuntirib beriladi. Tushuntirish argumentlash bilan bog‘liq. Tushunish bu voqea va hodisalarning, nutqning, xatti-harakatlarning ma‘nolar olamiga kirib borish demakdir. Inson ko‘rgan, his qilgan narsalarining ma‘nosini bilmasa, uni nima ekanligini ham tushunmaydi. Tushunish tarixiy cheklangan va madaniy holat, urf-odatlar bilan avvaldan belgilangan [4].

**Natijalar.** Dialog, eng avvalo, har qanday bilimning, jumladan, falsafiy bilimning boshlang'ich asosini aniqlashga harakat qiladi. U tushunish mezoni va boshlang'ich nuqta bo'ladigan, boshqa barcha narsa va hodisalarni baholay oladigan yetarli asoslarni topishga harakat qiladi. Dialog inson faoliyatida o'zining mavqeiga ega, uning asosiy funksiyasi borliqning ilk mohiyati haqidagi ob'ektiv bilimlarni yaratish va tizimlashtirishdan iborat. Ontologik mohiyatiga ko'ra dialog, fundamental ilmiy kashfiyotlarga na ijobiy, na salbiy ta'sir qilmasa-da, ularga falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan xolisona baholashga yordam beradi.

Insonning kundalik turmush tarzida yuzaga keladigan dialog, uning turli-tuman faoliyat jarayoniga bog'liq holatda shakllanadi. Insonning jamiyat bilan o'zaro aloqasi ham dialogdir, o'zaro munosabatning shakllanishi dialogning turli ko'rinishlarini namoyon qiladi. O'zaro muloqot qilish natijasida yuzaga keladigan ko'plab muammolar, jumladan, ijtimoiy munosabatlardagi qarama-qarshi fikrlarni yuzaga kelishi, ularni aniqlash va bilish bevosita dialog orqali amalga oshiriladi [5]. Har bir kishining individual bilimi va dunyoqarashi faqat uning boshqa kishilar bilan doimiy muloqoti, fikr almashinuvi va bu jarayonda dialogni tushunish imkoniyatining ortishi bilan rivojlanadi. Ya'ni, dialog asosida inson nafaqat o'zgaralar bilan, balki o'zining ma'naviy-ruhiy olami bilan ham munosabatga kirishadi, natijada unda yangi bilim hosil bo'lishga bo'lgan qiziqish tobora ortib boradi. Bu esa, insondagi ijodiy-evristik g'oyalarning shakllanishiga olib keladi. Dialog qanchalik mazmundor bo'lsa, uning ishtirokchilari shunchalik teran fikrga ega bo'ladi. Ularning ijodiy qobiliyati dinamik tarzda rivojlanadi. Tushunish jarayoni doimo dialog xususiyatiga ega, zero, tushunish muloqot bilan sub'ekt faoliyati, shaxs, matn, madaniyatlar determinatsiyasini aks ettiradi. Turli xil ijtimoiy-madaniy munosabatlarda dialog u yoki bu xarakterli jihatlarni ham yuzaga keltiradi, uning ba'zi shakllari ma'lum bir vaqtlarda har xil vazifalarni bajaradi, qabul qilinadi yoki inkor qilinadi.

Dialog falsafiy tushuncha sifatida shakllanib, chuqur ma'no kasb etgan holda ijtimoiy-madaniy munosabatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Har bir kishining individual bilimi faqat uning boshqa kishilar bilan doimiy muloqoti, fikr almashinuvi va bu jarayonda dialogni tushunish imkoniyatining ortishi bilan rivojlanadi. Inson nafaqat o'zgaralar bilan balki o'zi, o'z kelib chiqish tarixi bilan ham munosabatga kirishadi, natijada uning bilimi o'zgarib boradi. Tushunish muloqot bilan sub'ekt faoliyati, shaxs, matn, madaniyatlar dialogidir.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, til va madaniyatlar bilan «dialog»ga kirishish, diniy, falsafiy, tarixiy, badiiy adabiyotlar «matn»ini tadqiq qiluvchi soha mutaxassisleri uchun juda zarurdir.

Keyingi davrda ijodiy tafakkur va tushunish asosi sifatida dialog masalasiga qiziqish ortmoqda. Bu tasodif emas, albatta. Chunki, dialog inson hayoti, tili, munosabatlari va umuman barcha narsalarga ega bo'lgan mavjud ijtimoiy-madaniy munosabatlarni o'z ichiga oluvchi universal hodisadir.

Hozirgi davr falsafasida dialogni takomillashtirish fundamental ilmiy muammolardan biri bo'lib, uning turli modellarini yaratish muhim masala hisoblanadi. Bu sohada G'arb olimlaridan Zoya Moroxoeva va Ernest Kochetovning asarlarida bayon etilgan qarashlarga yondashgan holda dialogning hozirgi davr uchun mos keladigan falsafiy jihatlarni yoritish muhim masalalar qatoriga kiradi [6]. Masalaga bunday yondashuv esa aniq bir dialog ishtirokchilarini bilish ob'ekti sifatida o'rganishga va muloqot jarayonining normativ jihatlarni shakllantirishga yordam beradi. Dialogning ijtimoiy-madaniy munosabatlardagi ahamiyati haqida fikr yuritir ekanmiz, bunda biz avvalo bahs san'atiga ham e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Ayni shu ma'noda nemis olimi Shvitall dialogni amalga oshirish uchun bilish zarur bo'lgan to'rt usulini keltirib o'tadi.

A) Kommunikativ almashinish jarayonining ishtirokchisi sifatida eng kamida ikki shaxsni ko'rsatish mumkin.

B) Bu shaxslar «o'zaro ta'sirlashuv» jarayonida bo'lishi, ya'ni ularning qarashlari bir-biriga qaratilishi ko'zda tutiladi.

V) Bu almashinuv jarayonida dialog vazifasini o'zaro nutq jarayonidagi alohida bir belgilar tizimi bajaradi.

G) Notiq va tinglovchi vazifalari navbatma-navbat bir ishtirokchidan ikkinchisiga o'tib turadi [7].

Bizning fikrimizcha, muallifning bu qarashlari bir qarashda mukammal tuyulsada, unda ishtirokchilarning bilish darajasi ko'zda tutilmagan. Bu jarayonda dialogning bilim egallashga qaratilgan vazifasi ishlamay qoladi. Nazarimizda, dialog o'z fikrlarida qat'iy turadigan kishilarning mantiqiy kommunikativ jarayonidagi aloqasidir. Shuningdek dialog tilning aniq va o'ziga xos muhitga moslashishini ham namoyon etadi.

Fikrlar almashinuv jarayonida dialog ishtirokchilari hech narsa yo'qotmaydi, balki g'oyalar almashinuvida ma'lumotlarda aniqlanadi va yangi bilim evaziga ma'naviy o'sish namoyon bo'ladi. Dialog qanchalik mazmundor bo'lsa, uning ishtirokchilari ham shunchalik teran fikrga ega bo'ladi. Ularning ijodiy qobiliyati dinamik tarzda rivojlanib boradi, hatti-harakatlari natijasida olam yangi ma'noli qolipga tushadi. Dialog ishtirokchilari g'oyalarning o'zaro biri - biriga zid kelish holatlarida ham ular o'zlarining ruhiy va intellektual xususiyatlarini saqlab qoladilar. Dialog bu eng arzon va tezkor axborot almashinuv shaklidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi dunyo har qachongidan ko'ra qarama-qarshi va munozaralidir. Ijtimoiy-madaniy turmush tarzi turli sohalarda mazmunli, samarali va istiqbolli dialog tarzini fan va siyosatda, partiyalar va millatlar, halq va hokimiyat munosabatlarida kuzatish mumkin. Ijodiy tafakkur yuritishda mantiqiy shakllarga asoslangan holda dialog olib borish, bizning davrimizda ijtimoiy taraqqiyotning kelajakdagi jadallashuvida muhim rol o'ynaydi. Yaxshi dialog ko'p jihatdan demokratiya va fuqarolik jamiyatida biz nazarda tutadigan holatlarning namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy majlislar hamda munozaralar shuni ko'rsatadiki nutq so'zlash jarayonida tajanglik va qo'rslik, odatiy ahloqiy normalarga amal qilmaslik, fikrlarning mohiyatiga yetib bora olmaslik, ishonchsizlik, o'z imkoniyatini to'la namoyon qilish imkonini yo'qqa chiqaradi. Shuning uchun dialog madaniyatini chuqur o'rganish har bir inson uchun zarur hisoblanadi.

Mazmunli mulohaza yuritish uchun ijtimoiy kelib chiqishi, mansabi, ziyolilik darajasi jihatdan yuqori tabaqaga egaligi yoki nufuzli bo'lishi yetarli bo'lmaydi. Insonning xulosa chiqarish madaniyati holatining yaxshi shakllanganligi, eshitishi va eshitishga erishishi dunyoviy va mahalliy bilimlarga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda dialog ishtirokchilari muammoli vaziyatlarda yechimini topishi imkoniyatini beruvchi dialog shakllariga ham murojat qiladi. Masalan, zamonaviy ma'ruzada dialogning turli-tuman ko'rinishlarining umumlashtirilishi yaxlit xulosa chiqarishga keng imkoniyat yaratadi. Tashqi ko'rinishidan u ritorik xarakterga ega bo'ladi. Ilmiy – texnik inqilob jarayonida paydo bo'lgan, umumiy ijod, har bir shaxsning ijodiy imkoniyatini shakllantiradigan dialog Suqrotcha xususiyatga ega bo'ladi.

Nutq orqali bir odamning boshqa odamni axborot bilan ta'minlashi dialogizmdir. Bu so'roq o'tkazilayotgan shaxsdan ba'zi bir axborotlarni olish imkoniyatida o'z ifodasini topadi. Dunyo xalqlari o'rtasida turli sohalarda o'zaro hamkorlik aloqalari tobora kengayib borayotganligining o'zi ham yangi soha va yo'nalishlarini taqozo etmoqda. Chunki har bir millat va elatlarning o'ziga xos, hech kimnikiga o'xshamaydigan muloqot me'yorlari mavjudki, bularni bilmay turib turli mamlakat xalqlari o'zaro muloqotga kirisha olmaydilar. Aynan shuning uchun ham chet tillarini yoki bir tilda so'zlashuvchi turli hududlarda yashovchi kishilar muloqot xulqini o'rganishda ularning o'ziga xos tomonlarini bilishni davring o'zi taqozo etmoqda. Shuning uchun nutq yakuniy xulosaga asoslangan quruq va hissiz omillarga tayangan so'roq shaklida namoyon bo'ladi. U tasdiq yoki inkor etish va boshqa turda fikr bildirish, ikkilanish va savol holatida ham uchraydi. Nutq, jamiyat, madaniyat, milliy tafakkur, hatto sun'iy intellekt bilan uzviy munosabatini tekshiruvchi yo'nalishlarning allaqachon shakllanib bo'lganligi fan oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Tizimli nutqni belgilashning turli usullari qayd etilganligi ma'lum. Xususan, D.Lutfullaeva o'z tadqiqotida ushbu masalaga maxsus to'xtalib o'tadi va gap qurilish qoliplarining voqelanish masalasini tekshirish nutqiy hosilaning bevosita kuzatishda ko'zga tashlanmaydigan ichki tabiatini aniqlashga imkon berishini o'rinli ta'kidlaydi [8]. Tilshunos olim bu o'rinda nazarda tutgan nutqiy hosilaning bevosita kuzatishda ko'zga tashlanmaydigan hodisalaridan biri bu, shubhasiz, polipredikativ birliklarning dialogik nutqda voqelanishi masalasiga ham aloqadordir. Shunday qilib xulosa qiladigan bo'lsak, dialog turli nutqli ob'ektlarning ma'no jihatidan o'zaro faol hamkorligidir. Ma'no boshqa bir ma'no bilan uchrashganda yanada faollashadi, ma'no faqat munosabat sifatida mavjud bo'ladi. «O'z»

ma'nosining paydo bo'lishi uchun «Boshqa» ma'no (so'z, ong, dalil) bilan aniq dialog munosabati bo'lmog'i zarur, u birinchi navbatda «boshqani» teng sifatida qabul qilishi darkor.

Shu ma'noda yurtimizda amalga oshayotgan islohotlar O'zbekistonda intellektual uyg'onish davri boshlanganligidan dalolatdir. O'zbekistondagi intellektual ko'tarilish o'z yo'llari orqali oldinga ketmoqda, o'ziga xos shakllar, davralar, intellektual maydonchalarga ega, ularda turmushning bugungi kundagi muhim muammolari haqida intensiv tarzda fikr alamashishlar amalga oshmoqda. O'zbekiston dunyo hamjamiyati bilan dialogni boshladi.

Dialog bu - bayon qilingan fikrlar orasidagi munosabatlardir, ular muomala birligi sifatida amalga oshadi va til birligidan farq qiladi. Bunday ta'rifda til va nutq garchand maxsus tarzda qayd qilinmagan bo'lsa ham M.Baxtin tomonidan ajratilishi ko'zga tashlanadi. So'zlar bo'lmagan joyda til ham yo'q, dialog ham bo'lishi mumkin emas, predmetlar va mantiqiy o'lchovlar orasida ham bo'lishi mumkin emas. Dialog asosidagi munosabat til bo'lishini taqozo etadi, ammo til tizimida u yo'q. Til elementlari orasida ularning mavjud bo'lish imkoniyati yo'q [9]. Nutq doimo «muayyan nutq sub'ektiga xos bo'lib so'zlar shaklida yuzaga keladi» va boshqa nutq sub'ektiga yo'naltiriladi.

Nutq sub'ektlarining almashishi, ya'ni so'zlovchilarning almashishi orqali fikrni bayon qilish chegaralari aniqlanadi. Shu tarzda dialog asosidagi munosabatlar nutq sub'ektlari orasidagi munosabatlarga aylanadi va u nutqli muomala asosida o'rnatiladi. Muomalasiz dialog munosabatlarni o'rnatilishi mumkin emas. Bunday holatda dialog har qanday fikrlarni bayon qilish natijasida yuzaga keladi degan tasavvur paydo bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda dialog shaklidagi munosabatlar «relevant» munosabatlar emas (ikkita quloqlari garang shaxslar orasida vujudga keladigan aloqa jarayonini ham dialog deb tasvirlab berilishi mumkin – natijada «dialogning» butun ma'nosi yo'qoladi). Bunday tasavvurning yolg'onligi dialog munosabatlarni ma'noli munosabatlar kabi tavsiflab berilishida yaqqol ma'lum bo'ladi. Shubhasiz, dialog munosabatlarning ushbu muhim tomonini M.Baxtin ko'p marotaba qayd etgan: «Ikkita aytilgan so'zlar, mulohazalar, agar bir-biriga taqqoslansa, maxsus ma'noli munosabatlarga kirishadi, biz ularni dialog deb aytamiz» [9].

Dialog shaklidagi munosabatlarning mazmunini tasniflash bir qator savollarni paydo qiladi. Aytilgan so'z orasidagi dialog munosabatini aniqlash uchun ularni bir-biriga taqqoslash lozim. Mazkur taqqoslashni kim va qanday amalga oshiradi? M.Baxtin bunday taqqoslash fikr ma'nosida mavjud deb tavsiflab beradi. Ma'no deb u savollarga berilgan javoblarni kiritadi. Agar biron bir savolga javob berilmasa, u holda biz uchun bu so'z ma'no kasb etmaydi. Mantiqiy nuqtai nazardan shu narsa ma'lumki aytilgan so'zlar qaysi savolga javob berilganligiga bog'liq har xil ma'noni o'z ichiga oladi. Masalan quyidagi iborani esga olish mumkin: «Ona qizini yaxshi ko'radi». Oldin berilgan savolga bog'liq aytilgan so'zlar quyidagicha tushunilishi mumkin: «Ona qizini yaxshi ko'radi (o'g'lini emas) yoki «Ona qizini yaxshi ko'radi (bu gapda fikr o'g'il haqida emas). Dialog holatlarning (savol-javoblarning) ushbu jihatini maxsus qayd qilish lozim, mazkur oddiy bo'lgan savol shuni ko'rsatadiki, dialog shaklidagi holatlar va aytilgan so'zlar orasida vujudga keladigan munosabatlar, ikki xil ma'nolarni beruvchi fikrlarni tahlil qilish uchun yaxshi zamin yaratadi. Ushbu dialog shaklida qurilgan munosabatlarni mantiqiy jihatdan eksplikatsiya qilish doirasiga keyinchalik to'xtalib o'tamiz.

Dialogda dalillash, asoslash muhim ahamiyatga ega. Bu ma'lumot yuboruvchi shaxs tomonidan ma'lumotni qabul qiluvchi shaxs uchun mo'ljallangan nuqtai-nazarini asoslashga xizmat qiluvchi nutqiy faoliyatdir. U istalgan ma'lumot, farmon, buyruqdan farq qiladi. Dalillashda odatda oddiy ma'lumot va buyruqlar ifodalangan belgilar aks etadi, ammo uning o'ziga xos farqli tomoni shundaki, unda ma'lumot yuboruvchi shaxsning o'z fikr mulohazasi, haqqoniyligiga ishontirish jarayoni namoyon bo'ladi.

Dalillashning ham empirik, nazariy, kontekstual kabi turlari farqlanadi.

Dalillarga tayanib yuritiladigan, chinligi asoslangan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-e'tiqodni shakllantiradi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Asoslash ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-e'tiqod bu - kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir [10].

Huquq sohasida aybsizlik ehtimollik va taxminga asoslangan faraz bo'lgani kabi dialog nazariyasida ham ba'zan isbot tasdiqlanguncha bo'lgan faraz unumli suhbat deb ataluvchi talablar mavjud. K.Xemblin unga xos aniq xususiyatlarni keltirib o'tadi: «Istalgan suhbatning ehtimollik va taxminga asoslangan farazi ishtirokchilarning sog'lom aql va yaxshi xotira vaziyatida bo'lishlari, erkin so'zlashlari, tilni bilishlari, aynan aytilayotgan narsani nazarda tutishlari, haqiqatni so'zlashlari, savol berayotganlarida ular javob olishni istashlari kabilar hisoblanadi»[11]. Suhbat muhokama uchun umumiy masala bo'lgandagina unumli hisoblanadi. Dialogda qo'llaniluvchi vositalar ma'lumot yuboruvchi va ma'lumotni qabul qiluvchi shaxs uchun umumiy bo'lishi kerak. Hamfikirlikni ta'minlash uchun dialogda til muhim ahamiyatga ega. Bunda uning belgisi tizimi emas, balki dialog ishtirokchilari tayangan semantikasi, mazmuni muhim hisoblanadi.

Dialog olib borishning asosiy shartlaridan biri suhbat ishtirokchilar o'rtasida muloqot qilishga xohish va ehtiyojning bo'lishidir. Insonlarni til birlashtirishi mumkin, ularning suhbatlari uchun umumiy mavzu bo'lishi ham mumkin, ammo suhbatning yuzaga kelishiga ishtirokchilarning shaxsiy xususiyatlari to'sqinlik qilishi mumkin. Suhbatga odatda shaxsiy xususiyatlari yaqqol namoyon bo'lgan, istarali insonlar tanlanadi.

Unumli suhbat bu raqobat emas balki, hamkorlikda bo'lib, u chiroyli va uyg'un raqsga o'xshaydi. Suhbatdagi hamkorlik haqiqatga intilish, fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishdan tashqari uning ishtirokchilaridan xulqi xushmuomalalik qoidalariga mos kelishini talab qiladi.

Shu bilan birga hamkorlik konformizmni inkor etadi. Bu talabning bajarilishi ayniqsa ilmiy, tarbiyaviy, huquqiy sohalarida muhimdir.

Erkinlik - mazmunli suhbatning asosiy talabidan biridir. O'z fikrlarini ifodalovchilar birbirlariga nisbatan o'z qarashlariga ega, hurmatga loyiq sub'ektlar sifatida munosabatda bo'lishlari kerak.

Talablar ro'yhatini yana davom ettirish mumkin. Ammo bu xususiyatlar dialogning g'oyasini ochuvchi qarama-qarshiliklar birligi sifatida amal qiladi.

Dialog nutqiy aloqa vositasining birlamchi, tabiiy shakli hisoblanadi. Shuning uchun u nutqning shakli sifatida og'zaki nutqda keng tarqalgan. Ammo u ilmiy, publitsistik va rasmiy idoraviy uslubda ham ko'rsatilgan.

Nutqiy aloqa vositasi sifatida dialog o'z-o'zidan paydo bo'ladigan nutq sifatida namoyon bo'ladi. Dialog nutqining tarkibiy tuzilishi sodda gaplar, fikrlarning qisqaligi bilan ifodalanadi. Ayni paytda quyidagilar ham dialogning xossalari bo'lishi mumkin.

- a) suhbat o'tayotgan muhit va dialog ishtirokchilarining o'zaro munosabatiga bog'liq –vaziyat.
- b) fikrning oldingi fikrga bog'liqligini ifodalovchi –kontekstuallik.
- v) suhbatdoshlar uchun vaziyatning umumiy ruhi - jamoa ruhi.
- g) fikr nutqi va nutqi bilan bog'liq bo'lmagan vaziyatlar - tashqi ta'sir.
- d) beixtiyor, oldindan o'ylab ko'rilmagan holda tashkil etilgan –uyushqoqsizlik.

Dialog uchun avvalo uning ishtirokchilarining ma'lumotlilik darajasi, ikkinchidan ular bilimlaridagi minimal farqni bilish zarur. Aks xolda dialog ishtirokchilari suhbat mavzusi yuzasidan bir birlariga yangi ma'lumot bermaydilar, natijada dialog mazmunli, unumli bo'lmaydi.

Dialogning maqsad va vazifalari, muloqot vaziyati, ishtirokchilarning vazifasi asosida uning quyidagi turlarini ajratish mumkin. Kundalik suhbat, ish yuzasidan suhbat va intervyu.

Kundalik suhbat rejalashtirilmaganligi, mavzudan chetga chiqishi, mavzular ko'lamining xilma xilligi, suhbatga qo'yilgan aniq maqsadning bo'lmasligi va qaror qabul qilish majburiyatining yo'qligi, noverbal ifoda vositalaridan keng qo'llanish, og'zaki uslubga mansubligi bilan farqlanadi. Shunday qilib, dialog insonlar o'rtasida o'zaro aloqa qilishning eng universal vositasi hisoblanadi. Jamiyat demokratiya qoidalari asosida tariqqiy etayotgan davrda uning o'rni ayniqsa muhimdir. Bizning kelajagimiz inson faoliyatining turli sohalarida mazmunli dialogni uyushtirishga bog'liqdir, zero insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida dialogning qarama-qarshisi emas.

Shu bilan birga nafaqat kundalik hayotda, balki ijtimoiy faoliyatning boshqa sohalarida ham dialog darajasining juda pastligini qayd qilish kerak. Shuning uchun suhbat qurish madaniyatini oshirish zamonaviy jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir.

**Xulosa.** Dialogning keng tarqalganligi va oddiyliги bir qarashda intuitiv tarzda tushunarli va muqarrar ko‘rinadi. Bu ba‘zi holatlarda dialog haqida maxsus tadqiqot olib borishning hojati yo‘q degan fikrni shakllantirishi ham mumkin. Dialog insonning o‘zaro hamkorligini tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, murakkab va mazmunan boy hisoblanadi. Shu narsani ishonch bilan aytish mumkinki dialogning muammoli xususiyatga ega ekanligini anglab yetilganligiga hali ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Dialogning muammoli ekanligini anglab yetish, fanlararo tadqiqotlarni olib borish va uning tuzilishi, mexanizmlari, haqiqiy rolini tushuntirish imkoniyati borligi bilan bir vaqtning o‘zida amalga oshdi. Sinergetikadagi postnoklassik instrumentalizmning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘zining intilishlariga ko‘ra, tarmoqlararo intensiyani ifodalaydi, shuning uchun u, o‘zaro munosabatlardagi kelishuvni ham taqozo etadi va u dialoglar uchun hamisha ochiqdir. Dialog esa, strukturaviy chatishuvni ham taqozo etadi. Bu G.Xakenning olim sifatidagi faoliyati misolida ham ko‘rinadi. U dastlab, sof fizik olim sifatida shakllandi va keyinchalik sinergetik izlanishlarida inson faoliyatini o‘rganishga o‘tdi. G.Xakenning sinergetik izlanishlarida tabiat, jamiyatdagi turli – tuman tizimlarda «o‘z – o‘zidan» tashkil topadigan tizimlar, makroskopik o‘zgarishlar, ya’ni sifat va jarayonlarning emerdjent ravishda vujudga kelishi, ochiq tizimlarning o‘z – o‘zidan tashkillashuvi qonuniyatlari o‘rganiladi. Umumiy holda dialogning ikki tomoni mavjud, u ham shaklga ega, ham mavjud bo‘lish tarzi va mazmunga qaratilgan yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab oladi. Ammo dialogning boshlanish sababiga qaramasdan uning insoniyat umumiy hamkorligi uchun umumiy asosga ega ekanligini, dialog va dialog asosiga qurilgan munosabatlarni umuminsoniyatini inkor etib bo‘lmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахтин, М.М. *Проблемы поэтики Достоевского*. Москва: Советский писатель, 1963. С-62
2. Sinergetikaning tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolari: ilmiy-nazariy seminar. (ilmiy maqolalar to‘plami). Namangan: NamDU, 2009. b-73
3. Nazarov Q. *Bilish falsafasi*. -Toshkent.: Universitet, 2005. –B.314.
4. Файзиходжаева Д. Коммуникация жараёнида савол-жавобнинг тушуниш ва тушунтиришдаги ўрни/ «Шарқ ва Ғарб фалсафаси ва мантиғи компаративистик муаммолари» мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. ЎзМУ. -Тошкент., 2017 йил, 30-ноябр. -15 б.
5. Шикина Т.С. Диалог как категория социальной философии: диссертация .. кандидата философских наук: 09.00.11/Шикина С.Т.(Место защиты: Мордовский государственный университет имени Н.П.Огарева).-Саранск, 2012. -160с.:ил.РГБ 61 12-9/443.
6. Морохоева З.*Диалог культур Востока и Запада в эпоху глобализации. Перспектива. Евро-Азии.* /: – Киев: Таксон, 2013.–332 с.; Кочетов Е.Г.*Диалог: диалогистика как наука о судьбах человека и мира в контексте глобальных перемен: науч. моногр. - Москва: Экономика, 2011. – 149 с.*
7. Schwitalla J. *Kommunikative Stilistik zweier sozialer Welten in Mannheim-Vogelstang*. Berlin, -New York: de Gruyter, 1995.-558 s.
8. Лутфуллаева Д. Гапнинг семантик-синтактик қурилиш қолипи ва пропозитив структураси оўртасидаги муносабат (о‘збек тилидаги ё‘қлик-мавжудлик белгилари асосида зидланувчи гаплар мисолида): Филол.фанлари д-ри ... дисс. –Тосҳкент., 2006. –Б. 6.
9. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. -Москва., 1979 («Проблемы текста в лингвистике, филологии и других гуманитарных науках», «Ответы на вопросы редакции "Нового мира»», «К методологии гуманитарных наук»).-423 с
10. Шарипов М.Ш., Д.И.Файзиходжаева. Мантиқ тарихи ва назарияси. ЎМК. - Тошкент.: ЎзМУ. 2016.
11. Charles L. Hamblin, *Fallacies*, -London:Methuen, 1970.- 301r.

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

**AL-9224104729 “JADIDCHILIK TA’LIMOTI MILLIY STRATEGIK G‘OYALARINI OMMALASHTIRISHNING KONSTRUKTIV TRANSDITSIPLINAR MODELINI YARATISH” AMALIY LOYIHASI ASOSIDA TAYYORLANDI.**

**ПОДГОТОВЛЕНО В РАМКАХ ПРИКЛАДНОГО ПРОЕКТА AL-9224104729 “СОЗДАНИЕ КОНСТРУКТИВНОЙ ТРАНСДИСЦИПЛИНАРНОЙ МОДЕЛИ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА”.**

**PREPARED BASED ON THE APPLIED PROJECT AL-9224104729: “CREATING A CONSTRUCTIVE TRANSDISCIPLINARY MODEL FOR POPULARIZING THE NATIONAL STRATEGIC IDEAS OF JADIDISM”.**

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000